



SHAXSIYATNI O'LCHASH MODELLARI: MBTI VA BIG FIVE YONDASHUVLARINING METODOLOGIK HAMDA EMPIRIK ASOSLARI

Jamolov Zafarbek Azamat o'g'li

Kasbi tuman Ixtisoslashtirilgan maktabi 10-sinf o'quvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada men zamonaviy shaxsiyat psixologiyasining ikki katta yo'nalishi — Myers-Briggs Tip Indikatori (MBTI) va Katta Beshlik (Big Five / OCEAN) modellarini taqqoslab o'rganishga harakat qildim. Bu mavzuni tanlashimga asosiy sabab: maktabdagi sinfdoshlarim orasida MBTI testini topshirish juda ommalashib ketgan, lekin hech kim bu testning ilmiy jihatdan qanchalik ishonchli ekanligi haqida o'ylab ko'rmaydi. Shu muammodan kelib chiqib, ikkala modelning kelib chiqish tarixi, ilmiy asoslari, amaliy qo'llanilishi va kamchiliklarini o'rganib, qaysi yondashuv o'smir yoshdagi o'quvchilar uchun samaraliroq ekanligini aniqlashga urindim.

Kalit so'zlar: shaxsiyat, MBTI, Big Five, metodologiya, empirik tahlil, psixologiya, tipologik model, faktorli tahlil, validlik, ishonchlilik.

Аннотация. В данной статье автор предпринимает попытку сравнительного изучения двух ведущих направлений современной психологии личности — индикатора типов Майерс-Бриггс (MBTI) и модели Большой Пятёрки (Big Five / OCEAN). Поводом к выбору темы послужило широкое распространение тестирования MBTI среди школьников без критического осмысления его научной обоснованности. Рассматриваются теоретические основы и история возникновения каждой модели, степень их эмпирической валидности, области применения и ограничения.

Ключевые слова: личность, MBTI, Большая Пятёрка, методология, факторный анализ, валидность, надёжность.

Annotation. In this article, the author attempts a comparative study of two major frameworks in contemporary personality psychology — the Myers-Briggs Type Indicator (MBTI) and the Big Five (OCEAN) model. The motivation for choosing this topic came from observing how popular MBTI testing has become among schoolmates without any critical examination of its scientific credibility. The article explores the theoretical foundations, empirical validity, practical applications, and limitations of each model, with attention to which approach is more suitable for adolescents.

Key words: personality, MBTI, Big Five, methodology, empirical analysis, factor analysis, validity, reliability, adolescent psychology.

Mavzuning dolzarbligi va tadqiqot motivatsiyasi

Bu mavzuni yozishga qaror qilishimning boshlang'ich sababi juda oddiy. Maktabimizda o'tgan yili MBTI testi deyarli hamma o'rtasida mashhurlikka chiqib ketdi. Sinfdoshlarim «Men INTJ man», «Sen ENFP ekansanga» deyishardi va o'zlarini shu harflar bilan tanishtirardi. Bir kuni tanishim «Bu test hech qachon o'zgarmaydigan shaxsiyatimni ko'rsatadi» dedi. O'shanda menga biror narsa noto'g'ri bo'lib tuyuldi — lekin nima uchun noto'g'ri ekanligini aniq aytolmadim.

Shu savolga javob izlay boshlaganimda, shaxsiyat psixologiyasida MBTI dan butunlay boshqacha yondashuvchi ilmiy model ham borligini bildim — Big Five yoki OCEAN modeli. Bu ikki model o'rtasida jiddiy farqlar, hatto ziddiyatlar borligini o'rgangach, ularni qiyosiy tahlil qilish g'oyasi tug'ildi.

O'zbekiston Respublikasining 2020 yildagi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida maktab psixologik xizmatlarini rivojlantirish zarurati belgilab qo'yilgan. Bu meni yana o'ylantirdi: agar maktab psixologlari ham shaxsiyatni o'lchash uchun test qo'llasa, qaysi model ishonchli? Shu savollar ushbu maqolaning asosini tashkil etdi.

Shaxsiyat psixologiyasida ikkita asosiy yo'nalish: tipologik va faktorli yondashuvlar

Psixologiyada shaxsiyatni o'rganishga juda ko'p urinishlar bo'lgan — lekin ularni asosan ikki katta guruhga bo'lish mumkin: tipologik yondashuv va faktorli yondashuv.


Tipologik fikrlash tarixi qadimgi Yunonistonga borib taqaladi. Gippokrat insonlarni to'rtta temperament turiga — xolerik, sangvinik, flegmatik va melanxolik — bo'lgan. Bu g'oya ko'p asrlar davomida tibbiyot va falsafada ishlatildi. XX asrda esa Karl Gustav Yung o'zining psixologik tiplar nazariyasini ilgari surdi. U ekstraversiya va introversiya tushunchalarini kiritdi va bu keyinchalik MBTI ning asosiga aylandi.

Faktorli yondashuv esa butunlay boshqa mantiqqa asoslanadi. Bu yerda odamni aniq bir «qutiga» solib bo'lmaydi — balki har bir xususiyat uzluksiz shkala bo'yicha o'lchanadi. Raymond Kettell, Hans Ayzenk, keyinroq esa Paul Costa va Robert MakKrae shu yo'nalishda ish olib bordilar. Ularning sa'y-harakatlari natijasida Big Five modeli shakllandi.

Amerikalik psixolog Oliver Jon ta'kidlaganidek, insoniy shaxsiyat keskin kategoriyalarga emas, balki uzluksiz spektrga o'xshaydi. Bu fikrni men o'zim ham ma'qullayman — chunki atrofimda oddiy «ekstravert» yoki «introvert» bo'lmagan ko'p odam ko'rdim, ular ikkalasining o'rtasida turishadi.

Myers-Briggs Tip Indikatori (MBTI): tarixi, tuzilishi va ilmiy muammolari

MBTI 1940-yillarda Isabel Briggs Myers va uning onasi Kettrin Kuk Briggs tomonidan yaratildi. Ular psixolog ham emas edi, aslida — Myers adabiyot xorijida



tahsil olgan, onasi esa uy bekasi edi. Yungning 1921 yildagi «Psixologik tiplar» kitobini o'qib, uni keng ommaga tushunarli formatga keltirmoqchi bo'ldilar. Bu meni hayratga soldi — zamonaviy dunyoning eng mashhur psixologik testlaridan biri ikki uy bekasining ishi ekan.

Model to'rtta o'q asosida ishlaydi. Birinchi o'q: Ekstraversiya (E) — Introversiya (I). Odamning energiyani tashqaridan oladimi yoki ichki olamidani. Ikkinchi o'q: Sezgi (S) — Intuitsiya (N). Ma'lumotni aniq faktlar orqali qabul qiladimi yoki umumiy naqshlar orqali. Uchinchi o'q: Fikrlash (T) — His-tuyg'u (F). Qaror qabul qilishda mantiqqa tayanadimi yoki qalbgaga. To'rtinchi o'q: Qaror (J) — Idrok (P). Hayotni rejalashtirib yashashni yoqtiradimi yoki moslashuvchan bo'lib. Bu to'rtta o'qning kombinatsiyasi 16 ta tipni hosil qiladi: INTJ, ENFP, ISTJ va hokazo.

MBTI ning keng tarqalganligi inkor etib bo'lmaydigan haqiqat. Har yili ikki milliondan ziyod kishi bu testni topshiradi, Fortune 500 kompaniyalarining aksariyati xodimlarni baholashda undan foydalanadi. Internet esa bu mashhurlikni yanada kuchaytirdi — YouTube da, Instagram da, TikTok da MBTI tiplari haqida minglab video va postlar bor.

Ammo ilmiy tahlilga kirishganda, ko'rinish unchalik yorqin chiqmadi. Mening tushunishimcha, MBTI ning asosiy muammosi uchta.

Birinchi muammo — barqarorlik masalasi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, kishilarning taxminan yarmi besh hafta o'tgach qayta test topshirsa, boshqa tip oladi. Shaxsiyat o'lchovining eng asosiy talabi bu — vaqt o'tsa ham natija o'zgarmasligi kerak. MBTI bu talabga to'liq javob bermaydi.


Ikkinchi muammo — majburiy ikkilik tasniflash. Masalan, ekstraversiya va introversiya o'rtasida ko'p odamlar hech qaysi tomonida aniq turmasdan, o'rtada bo'ladi — psixologlar buni «ambivert» deydi. Lekin MBTI ularni majburan biriga yoki ikkinchisiga kiritib qo'yadi. Bu esa ancha muhim ma'lumot yo'qolishiga olib keladi.

Uchinchi muammo esa menga eng qizig'i bo'ldi — T/F (Fikrlash/His-tuyg'u) o'qi ko'pincha odamning biologik jinsini bashorat qilishi. Bu shaxsiyatni o'lchayotimi, yoki ijtimoiy stereotiplarni aks ettirayotimi, degan savol tug'diradi. Bundan tashqari, MBTI natijalari ish samaradorligi yoki akademik muvaffaqiyatni aniq bashorat qilmaydi.

Bularni yozar ekan, MBTI ni butunlay foydasiz deb bo'lmaydi. U odamlarga o'zini ifodalashda qulay til beradi, guruhda farqlarni muhokama qilishga imkon yaratadi. Bu kichik, lekin real foyda. Faqat uni «ilmiy haqiqat» sifatida qabul qilmaslik kerak.

Katta Beshlik (Big Five / OCEAN) modeli: qanday shakllandi va nima uchun ishonchli?

Big Five bitta olimning kashfiyoti emas. U o'nlab yillar davomida bir necha mustaqil ilmiy guruhning ishi natijasida shakllandi — bu o'z-o'zicha ishonch belgisi.



1960–70-yillarda Warren Norman va Lewis Goldberg ingliz tilidagi shaxsiyatga oid so'zlarni — minglagan sifatlarni — matematik tahlildan o'tkazdilar va asosiy omillarni aniqladi. 1980-yillarga kelib Paul Costa va Robert MakKrae NEO Shaxsiyat Inventariyasini ishlab chiqib, beshta asosiy o'lchovni aniq belgiladilar. Bu o'lchovlarning bosh harflari OCEAN so'zini hosil qiladi: Ochiqlik (Openness), Vijdonlilik (Conscientiousness), Ekstraversiya (Extraversion), Kelishuvchanlik (Agreeableness), Nevrotizm (Neuroticism).

Modelning eng kuchli tomoni — madaniyatlararo barqarorlik. Oltmishdan ortiq mamlakatda, xilma-xil tillarda va turli ijtimoiy sharoitlarda o'tkazilgan tadqiqotlar bir xil beshta omilni tasdiqladi. Turk, xitoy, ispan va swaxili tilidagi so'rovnomalar asosida ham xuddi shunday tuzilma topildi. Bu tasodif emas.

Bashorat qilish kuchi ham sezilarli. Vijdonlilik omili akademik muvaffaqiyat va mehnat samaradorligini ishonchli bashorat qiladi — bu maktab psixologi uchun juda qimmatli ma'lumot. Nevrotizm depressiya va tashvish buzilishlari xavfini ko'rsatishda qo'llaniladi. Ekstraversiya liderlik va ijtimoiy faollikni, Kelishuvchanlik jamoaviy ishni, Ochiqlik esa kreativlik va qiziquvchanlikni bashorat qiladi.


Egizaklar bilan o'tkazilgan genetik tadqiqotlar ham diqqatga sazovor. Big Five omillari o'rtacha 40–60 foiz darajada irsiy ekanligi aniqlangan — ya'ni bu xususiyatlar ma'lum darajada tug'ma asosga ega. Bu esa ularning nima uchun nisbatan barqaror ekanligini tushuntiradi.

Adolat yuzasidan aytish kerak: Big Five ning ham kamchiliklari bor. Nima uchun aynan beshta omil borligini model nazariy jihatdan tushuntirmaydi — bu faqat statistik topilma. Ba'zi tadqiqotchilar olti yoki yetti omilli modellarni taklif qilyapti. Masalan, HEXACO modeli ularga Halollik-Kamtarlik (Honesty-Humility) o'lchovini qo'shadi. Bundan tashqari, Big Five so'rovnomasi MBTI ga qaraganda kamroq qiziqarli va natijasi odamlarga unchalik «shaxsiy» tuyulmaydi — bu uning ommaviy mashhurligini kamaytiradi.

Ikkala modelni solishtirish va o'smirlar uchun qaysi biri mos?

MBTI va Big Five o'rtasidagi munosabat to'liq qarama-qarshilik emas. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, MBTI ning Ekstraversiya/Introvertsiya o'qi Big Five ning Ekstraversiya omili bilan yaxshi mos keladi. Shuningdek, MBTI ning Intuitsiya o'qi Big Five ning Ochiqlik omili bilan bir-biriga yaqin. Biroq MBTI ning T/F o'qi Big Five da bir nechta omillarning aralashmasiga to'g'ri keladi — bu mos kelish ancha zaif.

Metodologik jihatdan solishtirish Big Five foydasiga chiqadi: test-qayta test ishonchliligi yuqori, konstrukt validligi mustaqil tadqiqotlar orqali isbotlangan, bashorat qilish imkoniyati keng. MBTI esa bu mezonlarda aniq cheklovlarga ega.



Maktabdagi kuzatishlarimga keladigan bo'lsak — sinfdoshlarim bilan ko'p suhbat qilganimda anglashim shuki, MBTI o'zaro muloqotda qiziqish uyg'otadi. Tengdoshlar o'z tiplarini yod olgan, bir-birlariga tanitgan. Bu jihatdan MBTI o'zini anglash va muloqotni boshlash uchun qulay «darvoza» bo'lishi mumkin.

Lekin o'smirlik davri shaxsiyatning eng o'zgaruvchan davri. Shu sababdan ilmiy baholash uchun Big Five ancha to'g'ri tanlov. Bu yoshda ham qo'llash mumkin bo'lgan moslashtirilgan so'rovnomalar mavjud, va natijalar vaqt o'tishi bilan ancha barqaror turadi.

Mening fikrimcha, amaliy jihatdan eng to'g'ri yondashuv — bu ikki modelni bir-biriga raqib sifatida ko'rmaslik. MBTI o'zini va boshqalarni tushunarli tilda tushunishga yordam beradi. Big Five esa ilmiy baholash va uzoq muddatli rivojlanishni kuzatishga. Har biri o'z joyida foydali.

Xulosa

Bu maqolani yozish jarayonida men o'zim ham ko'p narsani o'rgandim. MBTI va Big Five — bu shaxsiyatni o'lchashning ikki turli falsafiy yo'li. MBTI tipologik va soddalashtirilgan kategoriyalarga asoslanadi, Big Five esa uzluksiz shkalalar va empirik dalillarga. Birinchisi qulay va keng tarqalgan, ikkinchisi ilmiy jihatdan ishonchli.

MBTI ning zaif tomonlari — barqarorlik muammosi, majburiy ikkilik tasniflash va bashorat qilish imkoniyatining chegaralanganligi — uni ilmiy asos sifatida qo'llashga to'sqinlik qiladi. Biroq odamlarga o'zini ifodalash uchun qulay til berishi sababli amaliy hayotda o'z o'rmini saqlab qoladi.

Big Five esa madaniyatlararo barqarorligi, genetik asoslanishi va yuqori bashorat qilish qobiliyati bilan zamonaviy shaxsiyat psixologiyasining mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi. Klinik psixologiya, kasb yo'naltirish va ilmiy tadqiqotlarda ustuvorlik berilishi kerak bo'lgan model shu.

O'quvchilar shaxsiyat testlarining cheklovlari haqida bilishi kerak, deb o'ylayman. «Bu test mening haqiqiy men'im» deyish — bu katta xato. Test — faqat bir oynachoq, unda hamma narsa ko'rinmaydi. Shaxsiyat psixologiyasi hali ko'p savollarni javobsiz qoldirmoqda, va bu ham o'z-o'zicha qiziqarli.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, 23.09.2020 yil. — Toshkent: Adolat, 2020.
2. Karimova V.M. Psixologiya asoslari. — T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. — 328 b.
3. Qodirov B.R. Shaxs psixologiyasi: o'quv qo'llanma. — T.: TDPU nashriyoti, 2015. — 214 b.
4. Costa P.T., McCrae R.R. Normal personality assessment in clinical practice: The NEO Personality Inventory // Psychological Assessment. — 1992. — Vol. 4. — No. 1. — P. 5–13.
5. Myers I.B., McCaulley M.H. Manual: A guide to the development and use of the Myers-Briggs Type Indicator. — Palo Alto: Consulting Psychologists Press, 1985.
6. John O.P., Srivastava S. The Big Five trait taxonomy: History, measurement, and theoretical perspectives // Handbook of personality: Theory and research. — New York: Guilford Press, 1999. — P. 102–138.
7. McCrae R.R., Costa P.T. Toward a new generation of personality theories // The Five-Factor Model of Personality. — New York: Guilford Press, 1996. — P. 51–87.
8. Boyle G.J., Matthews G., Saklofske D.H. The SAGE handbook of personality theory and assessment. — London: SAGE, 2008.
9. Goldberg L.R. The structure of phenotypic personality traits // American Psychologist. — 1993. — Vol. 48. — No. 1. — P. 26–34.